

## **NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI MONITORING QILISH VA O'RGANISH TARTIBI**

**Jumaniyazova Iroda Kurbanbayevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Xorazm viloyati yuridik texnikumi  
o'qituvchisi 3-darajali yurist

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimizdagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish va o'rganishning tartibi hamda uning huquqiy asosi haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о порядке мониторинга и изучения деятельности негосударственных некоммерческих организаций в нашей стране и его правовой основе.

**Annotation.** This article provides information about the procedure for monitoring and studying the activities of non-governmental non-profit organizations in our country and its legal basis.

**Kalit so'zlar.** Adliya organlari, monitoring qilish, ishchi guruh, rejali o'rganish, rejadan tashqari o'rganish, ta'sir chorasi, taqdimnoma.

**Ключевые слова.** Органы Минюста, мониторинг, рабочая группа, плановое исследование, внеплановое исследование, мера воздействия, представления.

**Keywords.** Judicial authorities, monitoring, working group, planned study, unplanned study, impact measure, presentation.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab – quvvatlashga doir qator huquqiy asoslar ishlab chiqilmoqda va ularga muvofiq tarzda samarali chora –tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu, albatta, nodavlat notijorat tashkilotlar sonining oshishi va ularning faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan. O'z navbatida, qabul qilinayotgan normativ –huquqiy hujjatlar nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini vakolatli davlat organlari tomonidan o'rganish va monitoring qilishni ham nazarda tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, ularning qonuniy faoliyat olib borish asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida”gi **nizom tasdiqlangan.**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar)

adliya bo'limlari nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish va o'rganishda vakolatli hisoblanadi. Adliya organlari nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlariga, ustav faoliyatiga, ta'sis hujjatlariga rioya etilishi, shuningdek, ularga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishini o'rganadi, qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan nazorat funksiyalari doirasida boshqa o'rganishlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilar o'rganishlarni o'tkazish uchun asos bo'ladi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari yoki ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida chiqarilgan adliya vazirining buyrug'i;
- adliya organlarining ish rejalari;
- adliya organlari tomonidan o'tkazilgan monitoring hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlardan olingan ma'lumotlar (hisobotlar) tahlili;
- nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibga rioya etilmagan holda o'tkazilgan tadbirlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi murojaatlari;
- ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar. Rejadan tashqari o'rganish ushbu o'rganishga asos bo'lgan aniq faktlar bo'yicha o'tkaziladi.

O'rganish turlari:

**rejali o'rganish** — adliya organi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan ish rejaga muvofiq o'tkaziladigan o'rganish. Bunda NNTni ish rejaga qo'shish uchun asos uning davlat (hisob) ro'yxatidan o'tkazilganidan yoki oxirgi o'rganish o'tkazilganidan uch yil o'tganligi hisoblanadi;

**rejadan tashqari o'rganish** — adliya organi tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va hollarda amalga oshiriladigan ish rejasiga kiritilmagan o'rganish.

O'rganish bo'yicha ishchi guruh o'rganishni amalga oshirishda:

- qonun bilan qo'riqlanadigan sirga rioya qilish sharti bilan o'rganishni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, NNTlarning elektron bazalaridan (banklaridan) foydalanish, NNTlarning hududlari va binolariga kirishga;
- o'rganish davomida NNT tomonidan ish yuzasidan foydalanishda bo'lgan narsa, hujjat, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni bayonnoma rasmiylashtirilgan holda olib qo'yishga;

- o'rganish o'tkazilayotgan NNT mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini chaqirishga, ulardan qonun hujjatlari, ustav faoliyati, ta'sis hujjatlarining buzilishi holati yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilishga;
- qonun buzilishi holatlari yuzasidan kelib tushgan murojaatlar bo'yicha zarur hollarda mutaxassislar bilan birgalikda o'rganish o'tkazishga haqlidir. O'rganish bo'yicha ishchi guruh qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

O'rganilayotgan NNT quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyati o'rganilishi to'g'risida tegishli axborotga ega bo'lish;
- o'rganish bo'yicha ishchi guruh a'zolaridan o'rganish o'tkazish to'g'risidagi buyruqni, o'rganishni o'tkazish uchun asos hisoblangan boshqa hujjatlarni talab qilish, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishish;
- o'rganish o'tkazish uchun asosga ega bo'lmagan shaxslarning o'rganishni o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'rganish bo'yicha ishchi guruh a'zolarining vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarini bajarmaslik va o'rganish predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik;
- qonunda belgilangan tartibda o'rganish natijalari bo'yicha shikoyat qilish.

Adliya organi rahbari monitoring qilish yoki o'rganish o'tkazish va tadbirda ishtirok etish natijalariga ko'ra besh ish kuni ichida aniqlangan qonunbuzilish holatlaridan kelib chiqib, belgilangan tartibdagi ta'sir choralarini ko'radi:

- NNTlar faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar(adliya organlari tomonidan aniqlangan qonunbuzilish holatlari, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish xususida qonunbuzilishni bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritiladigan hujjat) kiritish, ta'sis hujjatlarini va qonun hujjatlarini buzganligi uchun mansabdor shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish uchun, shuningdek, ularning aybi bilan davlatga yoki NNTga yetkazilgan moddiy zararni qoplash bo'yicha yuqori turuvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish;
- siyosiy partiyalarning ustavlarida nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
- NNTlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek, ularning qaramog'idagi oila a'zolarini, ular tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari buzilgan hollarda akkreditatsiyadan mahrum qilish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'sir choralarini amalga oshirish. O'rganishlarning to'liq va xolisona o'tkazilishiga, o'rganish ma'lumotnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlarning asoslilikiga va ishonchliligiga o'rganish o'tkazgan adliya organining mas'ul xodimlari shaxsan javobgar hisoblanadi. Mazkur tartib asosida monitoring qilish va o'rganish nodavlat notijorat tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishiga hamda faoliyati davomida yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun. 763-I-son. 14.04.1999
2. "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 635-son. 8.08.2018
3. SHAVKATOVNA, T. M. (2023). BO'LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO'LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O'RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O'RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.
4. SHAVKATOVNA, T. M. (2021, JUNE). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. IN ARCHIVE OF CONFERENCES (PP. 22-24).
5. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.
6. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.
7. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.
8. АБЛАЕВА, Н., & ДЖУМАНИЯЗОВА, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.
9. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). «В МОЕЙ ВООБРАЗИЛИИ»(ОБЗОР ДЕТСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ БОРИСА ЗАХОДЕРА). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE", 2(1).

10. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). ПРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН ТОЛСТОГО (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА" ВОЙНА И МИР"). JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(1), 24-27.
11. АБЛАЕВА, Н. К. (2024). «НАРОДНАЯ ДРАМА» АН ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА» В КОНТЕКСТЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ И ОБРЯДОВЫХ ТРАДИЦИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 24-29.
12. АБЛАЕВА, Н. К., & ЗУЛУНОВА, К. К. (2024). ТЕМА" МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА" В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПУШКИНА (" ПОВЕСТИ БЕЛКИНА"). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", 2(1).
13. АБЛАЕВА, Н. К. (2023). МНОГООБРАЗИЕ ТЕМ В ПОЭЗИИ БАБУРА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 566-569.
14. АНМАДЖОНОВНА, К. М. . (2023). THE ROLE OF SYNTACTIC DEVICES IN INCREASING THE EXPRESSIVENESS OF POETIC SPEECH. MIASTO PRZYSZŁOŚCI, 38, 133–137
15. ХУСАНОВА, М. Р. А. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ, (5-1), 125-130
16. АНМАДЖОНОВНА, К. М. (2024, FEBRUARY). ХОРИЈИ ТИЛНИ ОСОН ВА ҚИЗИҚАРЛИ О 'RGANISH TO 'G 'RISIDA. IN FORMATION AND DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL CREATIVITY: INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE (BELGIUM) (VOL. 4, PP. 20-23).
17. ХУСАНОВА, М. (2023). SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR. FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, (1), 163-163.
18. Karimov, A., & Khasanova, F. The Impact of Ancient Chinese on Baihua Language.
19. Khasanova, F. (2022). The Formation and Formation of The Chinese Language Baihua as The Basis of The Modern Chinese Language. Sharq Mash'ali, (01), 21-23.
20. Ruzikulova, D. X. (2022). THE PERSPECTIVES OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN THE MODERN SOCIETY. International Journal of World Languages, 2(2).